

SHOIRA ZULFIYA HAYOTI VA IJODI

Egamberdiyeva Laylo Yodgor qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoira Zulfiya hayoti va ijodi haqida soʻz yuritilgan. Zulfiya betakror isteʼdodi, Vatanga muhabbati, olijanob insoniy fazilatlari, xalqimiz maʼnaviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va eʼzozga sazovor boʻlgan.

Kalit soʻzlar: Zulfiya, shoira, imkoniyatlar, renessans.

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli oʻzbek shoirasi. Zulfiya timsolida haqiqiy sadoqatli Oʻzbek ayoli timsoli gavdalanadi. Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq gʻururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuygʻular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka boʻlgan ishonchini mustahkamlaydi.

Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 martda Toshkentning Oʻqchi mahallasida degrez oilasida tugʻilgan. U xotin-qizlar bilim yurtida oʻqib yurgan vaqtlaridayoq (1931–1934) adabiy toʻgaraklarga qatnashib, sheʼrlar mashq qiladi.

Zulfiyaning “Men ish qizi” nomli birinchi sheʼri 1931 yil 17 iyulda “Ishchi” gazetasida bosilib chiqdi. “Hayot varaqlari” nomli ilk toʻplami oʻn yetti yoshida nashr etildi (1932).

1935–1938 yillarda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi.

1938–1948 yillarda nashriyotlarda muharrir, boʻlim boshligʻi, 1950–1953 yillarda esa “Oʻzbekiston xotin-qizlari” (hozirgi “Saodat”) jurnalida boʻlim boshligʻi, 1953–1985 yillarda esa bosh muharrir boʻlib ishladi. Zulfiya badiiy-estetik puxta sheʼr-dostonlari bilan Oydin, Muzayyana Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safiga kirib keldi.

Zulfiyaning ijodiy kamolotida oʻzbek va rus klassiklari, xalq ogʻzaki ijodiyoti va jahon adabiyoti anʼanalarining roli beqiyos boʻldi.

Shoira “Temiroy” (1934), “Sheʼrlar” (1939), “Qizlar qoʻshigʻi” (1939) kabi poetik asarlarini ona Vatan va uning dala, choʻllarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bagʻishlaydi. Ayni chogʻda, mazkur toʻplamlardagi sheʼrlari shoiraning mahorat sirlarini egallayotgan davrini xarakterlovchi asarlar sifatida ham muhim edi.

Urush vaqtida “Uni Farhod derdilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944) kabi toʻplamlarining nashr etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan dalolat berdi. Bu toʻplamdagi sheʼrlar Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va gʻalabaga ishonch, yorga sadoqat ruhida yaratilgani bilan xarakterlidir. [1] Zulfiya Hamid Olimjonning “Semurg”, “Zaynab va Omon” dostonlari asosida pyesa va opera liberettosini ham yaratgan.

Zulfiya “O‘ylar”, “Shalola” kabi she‘riy to‘plamlari uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan (1970).

U o‘ttizdan ziyod she‘riy va nasriy kitoblar muallifi. Badiiy ijod sohasidagi xizmatlari uchun Davlat mukofoti, 1968 yil Javoharla‘l Neru nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlandi. Tinchlik va do‘stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun esa xalqaro “Nilufar” mukofotiga sazovor bo‘ldi (1970).

Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda bo‘ldi. U 1956 yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehlida o‘tkazilgan birinchi konferensiyasida qatnashib, mashhur “Mushoira” (1958) asarini yaratdi.[2]

Zulfiya betakror iste‘dodi, Vatanga muhabbati, olijanob insoniy fazilatlari, xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e‘zozga sazovor bo‘ldi. O‘zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e‘tiborga olib 1999-yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta‘sis etdi. Hozirgi kunda ushbu mukofot bilan fan, ta‘lim madaniyat, adabiyot, sport, jamoatchilik sohalarida alohida yutuqlarga erishgan, ta‘lim- tarbiyasi bilan jamiyatga o‘rnak bo‘ladigan qizlar sazovor bo‘ladilar.[3]

Har yili ushbu mukofot bilan 28 nafar iqtidorli qizlar mukofotlanadi. Har biz qiz Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori bo‘lishni xohlaydi. Bu o‘zgacha g‘urur bag‘ishlaydi. Bu Uchinchi Renessans poydevori biz yoshlardan o‘zgacha ma‘suliyat, fidoiylik talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/zulfiya-1915-1996/>
2. <https://tafakkur.net/zulfiya.haqida>
3. <https://wcu.uz/oz/lists/category/41>